

O'zbekning buyuk farzandini xotirlab



07.11.2022

O'zbekning buyuk farzandini xotirlab

Bugun "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti SXTE va B, YERB, GTQ, QSXET, GM fakultetlarining faol, iqtidorli va ijodkor talabalarining "Adiblar xiyoboni"ga tashrifi uyushtirildi. Tashrifdan asosiy maqsad 5-noyabr O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi muallifi Abdulla Oripov vafot etgan kunda shoirni xotirlashdir. Shu munosabat bilan, "Adiblar xiyoboni"da barpo etilgan Abdulla Oripov haykali poyida YeRB fakulteti dekani o'rinbosari va universitet fakultetlari tyutorlari boshchiligida "Ustozni xotirlab" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Tadbirni YeRB fakulteti dekani o'rinbosari X.Eshova kirish so'zi bilan ochib berdi. SXTE va B fakulteti tyutori M.Vafoyeva so'zga chiqib, 76 yil umr ko'rgan Abdulla Oripovning betakror ijodiy merosi, uning Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini madh etgan badiiy asarlari yoshlar tarbiyasida beqiyos o'rin egallashini ta'kidlab, shoirning she'rlarini yod olmagan, so'zi kuy-qo'shiqqa ko'chganda yurakdan tinglamagan birorta yurtdoshimiz yo'qligi haqida gapirdi. So'zining so'ngida talabalarni ustoz shoirning mashhur "Men nechun sevaman O'zbekistonni" she'rini birgalikda jo'r bo'lib ifodali o'qishga chaqirdi. Tadbir ishtirokchilarining yuragida vatanga bo'lgan kuchli sevgi va hurmat bilan baland ovozda aytilgan ushbu she'ri xiyobonda sayr qilib yurgan vatandoshlarimizning diqqatini tortdi. ...Yurtim, seni faqat boyliklaring chun Sevgan farzand bo'lsa, kechirma aslo!



Shundan so'ng GM fakulteti tyutori O'.Usmonov so'zga chiqib, o'zbek adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shgan atoqli shoir, jamoat arbobi Abdulla Oripovni sermazmun hayoti va ijtimoiy faoliyatining xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishi, shuningdek, xalqimizning ma'naviy mustaqilligi uchun kurashgan shaxslardan biri hisoblanishi, shoir o'z she'rlarida o'zbek tili haqida eng mukammal xulosani berganligi, faqat vatanparvarlik, insonparvarlik va kelajakka ishonch ilgari surilganligi haqida gapirdi. Tadbir so'ngida talabalar Abdulla Oripov qalamiga mansub she'rlardan va o'zlarining ijodiy namunalaridan o'qidi. Ayniqsa, "QSXET" fakulteti 108-guruh talabasi Xalilov Javohir tomonidan ustoz shoirning "Ona" she'ridan ilhomlanib yozilgan "Mehribonim Onam" she'ri maromiga yetkazib ijro etildi va barchaga birdek manzur bo'ldi. Shoir merosi- ijod namunalari ana shunday ilhom baxsh etguvchi tuganmas xazinadir.

Universitet matbuot xizmati